

UDK:635.1 /9.

INTRODUKTSIYA QILINGAN AYRIM MANZARALI BUTALARNI
KO'PAYTIRISH TEXNOLOGIYASI VA BIOEKOLOGIYASI O'RGANISHNING
DOLZARBLIGI

A.A.Axmadjonov

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada introduksiya qilingan ayrim manzarali butalarni ko'paytirish texnologiyasi va bioekologiyasi bo'yicha tadqiqot ishining mazmun va mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ko'kalamzorlashtirish, introduksiya, manzarali butalar, bioekologik xususiyatlar, Veygela (lat. Weigela), Spireya yaponskaya (lat. Spiraea japonica).*

Annotation: *This article describes the content and essence of scientific research on the technology of selection and bioecology of some introduced ornamental shrubs.*

Keywords: *Landscape design, presentation, ornamental shrubs, bioecological features, weigela (lat. Weigela), Japanese spirea (lat. Spiraea japonica).*

Jaxondagi ekologik vaziyat, insoniyat tomonidan tabiatga bo'layotgan salbiy ta'sirlar natijasida vujudga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhit va tabiiy iqlim muvozanatini yaxshilashning samarali usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Shu o'rinda, introduksiya qilingan daraxt va buta turlarini asosan, doimiy yashilligi bilan bir qatorda, manzaraliligi, istiqbolligi va tez o'sib yetiluvchanligi muhim hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida mahalliy sharoitga chidamli, manzarali, iqtisodiy samaradorlik xususiyatiga ega o'simliklarning individual guruhlarini tanlash va ishlab chiqarishga joriy etish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Aholi yashash xududlarini ko'kalamzorlashtirishda istiqbolli, turli tashqi zararli omillar hamda xar qanday iqlim sharoitlariga chidamli va moslashuvchan manzarali o'simliklar turlarini aniqlash va ko'paytirishning samarali hamda maqbul usullarini ishlab chiqish tadqiqotlariga alohida e'tibor beriladi. Bu borada, manzarali turlarning yangi nav va formalari yaratilishini, introduktsiyasini, daraxt va butalarning zamonaviy ko'kalamzorlashtirishdagi imkoniyatlari, vegetativ va generativ ko'paytirishning yangi usullarini ishlab chiqish va maqbul usullarni takomillashtirish zarur.

Barcha rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalarida manzarali o'simliklarni bioekologik hususiyatlarini o'rgangan holda introduksiya qilish va ko'paytirish usullarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Ko'kalamzorlashtirishda o'simliklarning manzaraviylik hususiyati hamda o'sib rivojlanishiga ekologik omillarning ta'siri bo'yicha tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan so'ngi

6 yilda O'rmon xo'jaligi sohasiga alohida e'tibor qaratilib, sohaga oid bir nechta qaror va farmonlar chiqarildi. O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan manzarali o'simliklar ko'chatlarini yetishtirishning ilmiy asoslarini hamda istiqbolli texnologiyalarini ishlab chiqishga

alohida e'tibor bermoqda. Mamlakatimiz iqlimiga moslashtirilgan manzarali, istiqbolli va qurg'oqchilikka moslashgan introdutsent o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, ularga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari uchun ko'paytirish usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 yanvardagi "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalarni ekish, parvarish qilish, kesish hamda daraxtlarni xatlovdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 43-son qaroriga e'tibor qaratilsa shaharlar va aholi turar joylarini yanada ko'kalamzorlashtirish, sof ekologik muxitni yaratishda bunday introdutsent manzarali daraxt va buta o'simliklarining o'rni beqiyos [1].

Shu sababli Andijon viloyati sharoitida introduktsiya qilingan ayrim manzarali butalarni tanlash, introduktsiya tarixini aniqlash, muxitning tabiiy iqlim sharoitiga moslashish darajasi va tarqalish arrealini tadqiq etish, bioekologik xususiyatlarini o'rganish xamda ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Ushbu ishlarni amalga ohirish uchun bir qancha vazifalar belgilab olindi:

Andijon viloyatida introduktsiya qilingan ayrim manzarali buta turlarini tanlash;

Tanlangan butalarni yasil qalamchalaridan ko'paytirishning samarali usullarini aniqlash;

Tanlangan butalarni yog' ochlangan qalamchalaridan ko'paytirishning samarali usullarini aniqlash;

Tanlangan butalarni ildiz qalamchalaridan ko'paytirishning samarali usullarini aniqlash;

Tayyorlangan qalamchalarni hech qanday ishlov bermay ekish;

Tayyorlangan qalamchalarni qumda stratifikatsiya qilib ekish;

Tayyorlangan qalamchalarni Kornovin eritmasida 12 soat ivitib ekish;

Tayyorlangan qalamchalarni chirindi, gong, qum, tuproq aralashgan mahsus yerga ekish;

Geografik tarqalishi, muxitga moslashish darajasini o'rganish uchun ilmiy ekspiditsiya tashkil etish;

Tadqiqot o'tkaziladigan joyning tabiiy-iqlim sharoitlarini Andijon viloyati meteostansiyasi ma'lumotlari bo'yicha o'rganish.

Andijon viloyatida introduktsiya qilingan manzarali buta turlarini introduktsiya tarixi va ko'chatlarini ko'paytirish texnologiyasini o'rganish ishlarida butalarning 2 ta turi Veygela (lat. Weigela) va Spireya yaponskaya (lat. Spiraea japonica) tanlangan.

Tadqiqotlar jarayonida barcha fenologik kuzatuvlar I.N.Beydeman «Metodika izucheniya fenologii rasteniy» [2], daraxt va butalarni vegetativ usulda ko'paytirish maqsadida manzaraviylik xususiyati bo'yicha baholashda N.I.Shtonda [3] uslubiga asosan amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlashda umumqabul qilingan mezonlar hamda B.A.Dospexov «Metodika polevogo opita» [4] uslubiga asosan bajariladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Andijon viloyati sharoitida ilk bor ayrim buta turlari introduktsiya qilinadi. Ularning introduktsiya tarixi ekspeditsiyalar asosida o'rganiladi. Ushbu o'simliklarning generativ va vegetativ usullarda ko'paytirish texnologiyasi ishlab chiqiladi. Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirishdagi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati tadqiq etiladi va amaliyotga joriy etiladi. Bu texnologiya orqali aholi yashash joylarida yangi manzarali butalarning xillari ortadi.

Manzarali o'simliklar ko'chatlarini tayyorlashning iqtisodiy samaradorligi ortishiga erishiladi. Ko'chatlarning tannarxi arzonlashadi.

Andijon viloyatida introduksiya qilingan manzarali buta turlarini introduksiya tarixi va ko'chatlarini ko'paytirish texnologiyasini o'rganish ishlarida butalarning 2 ta turi tanlangan;

Jumladan, ayrim buta turlarining introduksiyasi, vegetativ usulda kupaytirishning maqbul muddatlari va sharoitlari aniqlanadi;

Tadqiqot ob'ektlari bo'lgan Andijon viloyatidagi ayrim introdutsent buta turlarining ko'kalamzorlashtirishda xamda estetik zavq olish maqsadida, havo harorati hamda boshqa ekologik omillar ta'siridagi bioekologik xususiyatlarini namoyon bo'lishi aniqlanadi;

Introdutsent o'simlik turlarining rivojlanish fenofazalari aniqlanadi.

Tadqiqotlar natijasida aholi yashash joylari, shaxar markazlari xamda ko'kalamzorlashtirishda estetik zavq beruvchi introdutsent o'simliklar soni ortadi. Shu bilan birga axoli yashash joylari xavosini tozalanishiga, shamol va tuproq erroziyasini oldini olishga ko'maklashuvchi, xozirgi kundagi iqlim o'zgarishi, havo haroratining ortib borishi kabi turli xil ekologik muammolarning bartaraf etilishiga foyda beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 yanvardagi "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanishni tartibga solish va ulardan foydanish sohasida ruhsat berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 43-son qarori.

2. Beydeman I.N. "Metodika izucheniya fenologii rasteniy i rastitelnix soobshestv". - Novosibirsk: Nauka, 1974.

3. Pechenitsin V.P., Shtonda N.I. Reproduktivnaya sposobnost i yeyo otsenka u introdutsirovannix drevesnix rastenii pri rasshirenii ix kultigennogo areala. // Aktualnie prblemi ekologii rasteniy: Mat.res.nauch.konf. posvyashchennoy 50-letiyu laboratorii anatomii i tsitoembrologii. - Tashkent.: 2012. S. 104-106.

4. Dospexov B.A. «Metodika plevogo opita. Agropromizdat, 1985.